

ФАН НОМИ“Suv yo‘llari va portlari”

Fanni o‘qitishdan maqsad- asosiy maqsadi bakalavrlarni sun‘iy suv yo‘llari hamda portlar va ulardagi inshootlarni loyihalash va qurish asoslari bilan tanishtirishdir.

-xalq xo‘jaligida suv yo‘llari va portlarning ahamiyati haqida;

- suv yo‘llari va portlaridagi inshootlar turlari va konstruksiyalari **haqida**
- **tasavvurga ega bo‘lishi;**
- suv yo‘llari va portlarini xisoblash, loyixalash va qurish usullarini **bilishi va**
- **ulardan foydalana olishi;**
- suv yo‘llari va portlarini loyihalash va qurish;

suv yo‘llari va portlarini loyihalash va qurishda optimal variantlarni tanlash **ko‘nikmalariga ega bilishi kerak.**

Fanning vazifasi - Bakalavr suv yo‘llarini hamda suv transport inshootlarini loyixalashtirish bo‘yicha meyoriy va texnikaviy adabiyotlardan foydalanib, xar bir sharoit uchun tug‘ri texnikaviy yechimni tanlashi shart.

Bakalavr xalq xo‘jaligida suv yo‘llari va portlaridagi inshootlar turlari va konstruksiyalari loyihalashni o‘rgatish.

suv yo‘llari va portlarini xisoblash, loyixalash va qurish usullarini **o‘rgatish** suv yo‘llari va portlarini loyixalash va qurish;

suv yo‘llari va portlarini loyixalash va qurishda optimal variantlarni tanlashni o‘rgatish

MAB3Y. Suv transporti va suv yo‘llari to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar.

PEЖA.

1.Kirish. Umumiy transport tizimida suv yo‘llarining o‘rni.

2. O‘zbekiston Respublikasi va O‘rta Osiyodagi suv transporti tarixi bo‘yicha qisqacha ma‘lumotlar.

3.Suv transportini rivojlantirish istiqbollari va uning iqtisodiyotdagi o‘rni

Daryo transporti — transportning asosiy turlaridan biri; tabiiy (daryo, ko‘l) va sun‘iy (kanal, suv ombori va boshqalar) suv havzalari orqali yuk va yo‘lovchi tashiydi. Vazifasiga ko‘ra, bir qancha davlatlar o‘rtasida tashqi savdo aloqalarida yuk tashishga xizmat qiluvchi magistral daryo yo‘llarida (mas, Dunay, Oder, Reyn, Amur, Paragvay va boshqalar), mamlakat ichida yirik mintaqalararo (mas, Yanszi, Volga, Missisipi), ichki hududiy aloqalarga xizmat ko‘rsatadigan mahalliy (hudud ichida) Daryo transporti turlari mavjud. Daryo transporti kemalari foydalanish maqsadlariga ko‘ra transport, texnik va yordamchi kemalariga bo‘linadi. Transport kemalari tarkibiga yo‘lovchi, palubasida quruq yuk tashuvchi, tryumiga suyuq yuk tuldiriladigan yoki palubasida maxsus baklar o‘rnatilgan suyuq yuk (neft, neft mahsulotlari) tashuvchi, suruvchi va shatakchi kemalar kiradi.

Texnik flot da daryolar tubini chuqurlashtiruvchi snaryadlar, suv yo‘llarini sozlashga xizmat ko‘rsatadigan yordamchi kemalardan foydalaniladi. Yordamchi kemalar ga ta‘mirlash ustaxonalari, suzuvchi magazinlar, kemalar, paromlar, kum va shag‘al qazib oladigan jihozlar va boshqalar kiradi. Daryo transportida bug‘, yonilg‘i, elektr energiyasi, gaz dvigatellari yordamida harakat qiladigan kemalar (paroxod, teploxod, elektroxod) hamda barja va sollardan foydalaniladi. Daryo transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish quruqlikda harakat qiluvchi transportga nisbatan ancha arzon (avtomobil transportiga nisbatan 3—5 marta).

Yuk va yo‘lovchilarni manzilga yetkazishda Daryo transportidan foydalanish qadimdan ma‘lum. Miloddan ming yillar ilgari Mesopotamiya (Dajla va Furot daryolari) va Misr (Nil daryosi)da eshkakli va hatto, yelkanli kemalar ishlatilgan.

Dunyoda daryo yo‘llarining umumiy uz. 550 ming km ga yaqin. Yevropada Daryo transporti bir-muncha yaxshi rivojlangan. Mas, Polshada Odra, Visla daryolari, Germaniyada Quyi Oder, O‘rta Elba va boshqalar, Vengriyada Dunay, Tisa, Kyoryosh, Fransiyada Reyn, Rossiyada Volga daryolarida yuk va yo‘lovchi tashuvchi kemalardan keng foydalaniladi. Shuningdek, AQSH,

Braziliya, Kanada va boshqalar davlatlarda ham yuk tashishda Daryo transporti muhim ahamiyatga ega.

Oʻrta Osiyoda qadimdan Amudaryo va Sirdaryoda qayiqlardan transport turi sifatida foydalanilgan. 18-asrda Rossiyaning boshqa mamlakatlar bilan savdo munosabatlari Oʻrta Osiyoda daryo transportining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Jahon bozorida rus xom ashyosi (yogʻoch, don, kanop, momiq) va Rossiya orqali oʻtadigan sharq tovarlari (choy, ipak, paxta va boshqalar) ga talab ortdi. 1847 yilga kelib Orol dengizining shim. qirgʻogʻi va quyi Sirdaryoni egallagan Rossiya ruslarning tayanch punktlarini qoʻriqlash va yangi hududlarni oʻrganishga moʻljallangan Orol harbiy flotilyasini tuzdi.

Amudaryoda bugʻ bilan yuradigan kemalarning uzluksiz qatnovi 1873 yildan yoʻlga qoʻyildi (shu yilning aprelda Orol dengizidan Nukus shahrigacha birinchi kema yurdi). 1877 yilda daryoning Chor-joʻygacha boʻlgan qismi ham oʻrganildi, suv yoʻli uzaytirildi. 1887 yilga kelib Rossiyaning Oʻrta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy mavqegini mustahkamlash maqsadida Amudaryo harbiy flotshshyasi tashkil etildi (Amudaryo harbiy flotilyasini tashkil etish toʻgʻrisidagi qaror 1893 yilda tasdiklangan). 1913 yilda flotilyada 8 paroxod, 14 barja boʻlib, ular garnizonlarga xizmat koʻrsatish, Toʻrtkoʻldan Termizgacha boʻlgan masofaga doimiy pochta, yoʻlovchi va yuk tashishni yoʻlga qoʻyishga moʻljallangan edi. 1923 yilda Amudaryo harbiy flotilyasi natsionalizatsiya qilindi va "Oʻrta Osiyo paroxodchiligi" aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Kema va qayiqlar qatnaydigan suv yoʻllarining umumiy uz. 887 km edi. Oʻsha davrda Oʻrta Osiyo suv yoʻllarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t boʻlgan 20 kema va 50 barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t boʻlgan 1500 qayiqbor edi. 1923 yilda boshqaruv idorasi Toshkentda joylashgan Oʻrta Osiyo paroxodchilik boshqarmasi tuzildi (1934 yilda boshqarma Chorjoʻyga koʻchirildi, 1956 yildan Oʻrta Osiyo paroxodchiligi sobiq Ittifoq Dengiz floti vazirligi ixtiyoriga oʻtkazildi).

1930 yilda Toshkentda dengiz texnikumi ochildi (1939 yilda Chorjoʻyga koʻchirilgan). Xorazm vohasi, Qoraqalpogʻiston, Tojikiston, Turkmaniston daryo transporti 50-yillarning 2-yarmigacha bu xududlarning iqtisodiy rivojida muhim oʻrin tutdi. 1950 yil Termizda daryo porti ochildi, 1952 yilda Xoʻjaylida kema taʼmirlash zdi qurildi. Amudaryo sohillarida yangi Sharlavuq, Toʻrtkoʻl, Beruniy, Qoratov, Xoʻjayli bandargoh (pristan)lari foydalanishga topshirildi. 1980 yilga kelib Oʻzbekistonda suv yoʻllarining umumiy uz. 2800 km ga yetdi. Amudaryoda Panj (Tojikiston) bandargo-qidan Moʻynoqqa qadar paroxodlar qat-novi amalga oshirildi.

Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yoʻllari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay 1980 yil Daryo transportida 1420 ming t yuk tashildi.

1991 yilda Oʻrta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan keyin Oʻrta Osiyo paroxodchiligi boshqarmasi mulki Turkmaniston, Oʻzbekiston, Tojikiston oʻrtasida taqsimlandi. 1994 yil 11 mayda Oʻzbekistan Respublikasida joylashgan daryo floti boʻlinmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. Oʻrta Osiyo paroxodchiligining Oʻzbekistondagi mulki va boʻlinmalari negizida "Termiz daryo porti", "Xorazm daryo floti", "Qoraqalpogʻiston daryo floti" ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi (1995). 2001 yil iyun oyidan Oʻzbekistan avtomobil va daryo transporti agentligi (1998)ning Kemachilik registri va kemachilik inspeksiyasi boʻlimi flotning texnik holati va suv yoʻllarining holatini nazorat qilish ishlarini olib boradi.